

IJTIMOIIY TADBIRKORLIK: KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI YANGI YONDASHUV

Abdullayeva Dilnozaxon No‘monxon qizi

O‘ZMU Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi dunyoda iqtisodiyot tez sur‘atlarda o‘sib borayotganiga qaramay, kambag‘allik va ishsizlik hali ham dolzarb muammolar qatoridan joy olgan. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda, bu muammo haligacha kun tartibida turibdi. Aholining ayrim qatlamlari barqaror daromad topish imkonidan mahrum, malakali ish o‘rinlari esa cheklangan. Bundan tashqari, moliyaviy resurslarga yetarlicha kirish imkoni yo‘qligi ham kambag‘allik darajasining pasayishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shunday vaziyatda, an‘anaviy iqtisodiy yondashuvlardan farqli, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan yangicha yo‘nalish — ijtimoiy tadbirkorlik shakllana boshladi. Bu yondashuv jamiyatga real foyda keltirish, ayniqsa kambag‘allik, ishsizlik va imkoniyati cheklangan guruhlar bandligini ta‘minlashni asosiy maqsad qilib oladi. Shu orqali u iqtisodiy faoliyat bilan ijtimoiy maqsadlarni birlashtiradi. Mazkur maqolada aynan ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi, uning kambag‘allikni kamaytirishdagi o‘rni va samarali jihatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, dunyodagi va O‘zbekistondagi amaliy misollar asosida bu yondashuvning foydasi tahlil qilinadi.

Аннотация: Несмотря на то, что мировая экономика сегодня стремительно развивается, такие социальные проблемы, как бедность и безработица, по-прежнему остаются актуальными. Особенно это касается развивающихся стран, в том числе Узбекистана, где данный вопрос всё ещё стоит на повестке дня. Отдельные слои населения лишены возможности получать стабильный доход, количество квалифицированных рабочих мест ограничено, а доступ к финансовым ресурсам затруднён. Всё это препятствует снижению уровня бедности. В такой ситуации на смену традиционным экономическим подходам приходит новая концепция, ориентированная на решение социальных проблем, — социальное предпринимательство. Данный подход нацелен на создание реальной пользы для общества, в первую очередь в вопросах борьбы с бедностью, безработицей и обеспечения занятости уязвимых слоёв населения. Таким образом, он объединяет экономическую деятельность с социальными целями. В данной статье рассматриваются понятие социального предпринимательства, его роль в снижении уровня бедности и ключевые аспекты эффективности. Также проанализированы примеры успешного применения данного подхода в мире и в Узбекистане.

Annotation: Despite the rapid growth of the global economy today, poverty and unemployment remain pressing social issues. This is especially true for developing countries, including Uzbekistan, where such problems are still on the agenda. Certain segments of the population lack access to stable sources of income, there are limited opportunities for qualified employment, and access to financial resources remains restricted

— all of which hinder efforts to reduce poverty. In response to these challenges, a new approach has emerged — social entrepreneurship, which differs from traditional economic models. This concept focuses on addressing social problems such as poverty, unemployment, and the employment of vulnerable groups, aiming to generate real benefits for society. In doing so, it integrates economic activity with social goals. This article explores the concept of social entrepreneurship, its role in reducing poverty, and its effective aspects. It also analyzes the benefits of this approach through global and Uzbek case studies.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tadbirkorlik , barqaror rivojlanish, innovatsion yondashuv ,kambag‘allikni kamaytirish, teng imkoniyatlar, jamiyat muammolari, texnologik yechimlar, moliyaviy inklyuziya , mahalliy tashabbuslar , nogironlar integratsiyasi , davlat qo‘llab-quvvatlovi, ijtimoiy adolat.

Ключевые слова: Социальное предпринимательство, устойчивое развитие, инновационный подход, снижение бедности, равные возможности, проблемы общества, технологические решения, финансовая инклюзия, местные инициативы, интеграция инвалидов, государственная поддержка, социальная справедливость.

Key words: Social entrepreneurship, sustainable development, innovative approach, poverty reduction, equal opportunities, social issues, technological solutions, financial inclusion, local initiatives, disability integration, government support, social justice.

Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi iqtisodiyotning zamonaviy rivojlanish yo‘llaridan biridir. U nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan tashabbuslarni ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv nafaqat foyda keltiruvchi, balki jamiyatga ijobiy ta’sir o‘tkazadigan faoliyatni anglatadi.

Ijtimoiy tadbirkorlik sohasidagi eng muhim va taniqli shaxslaridan biri —Muhammad Yunus U, albatta, Grameen Bankni tashkil qilgani bilan mashhur. Grameen Bank — bu kambag‘allikka qarshi kurashishda kredit tizimini innovatsion shaklda taklif etgan bankdir. Yunusning asosiy g‘oyasi shundan iborat ediki, kambag‘allarni kredit olish huquqidan mahrum qilish, ularning iqtisodiy rivojlanishini to‘xtatadi. Yunus, shu bilan birga, ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilishning ahamiyatini ta’kidlagan. Grameen Bank, ayniqsa, kambag‘allar uchun mikroqarzlar taqdim etib, ularning hayotini yaxshilashga yordam berdi. Yunusning fikricha, kambag‘allik faqat moddiy kamchilikni bildiradigan holat emas, balki ijtimoiy va psixologik holatdir. Shuning uchun, kambag‘allikni kamaytirish faqat iqtisodiy yordam berish bilan cheklanmasligi, balki kishilarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish ham kerak.

Ijtimoiy tadbirkorlikda eng muhim tushunchalardan biri —ijtimoiy foyda. Ijtimoiy foyda — bu jamiyatning turli qatlamlariga foyda keltiradigan faoliyatni anglatadi. Ijtimoiy tadbirkorlar ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun bozor mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bunday tadbirkorlar foyda olishning o‘zidan ko‘ra, jamiyatga ijobiy o‘zgarishlar keltirishni maqsad qilishadi. Bunda ijtimoiy foyda asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Ijtimoiy foyda tushunchasini qo‘llagan holda, Muhammad Yunus Grameen Bank orqali mikroqarzlarni tizimini ishlab chiqdi. Bu tizim kambag‘allarga moliyaviy xizmatlar bilan ta‘minlash, ularni iqtisodiy faoliyatga jalb etish imkonini berdi. Shuningdek, Yunusning faoliyati ijtimoiy tadbirkorlikning samarali yondashuvini ko‘rsatdi, chunki Grameen Bank kambag‘allikni kamaytirish, ish o‘rinlarini yaratish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga yordam berdi.

Ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy asoslaridan tashqari, uning amaliy misollariga ham e‘tibor qaratish lozim. Dunyo bo‘ylab turli ijtimoiy tadbirkorlik loyihalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritib, kambag‘allikni kamaytirish, ishsizlikni bartaraf etish va jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga yordam bermoqda.

Bir nechta mahalliy ijtimoiy tadbirkorlik loyihalari o‘z mamlakatlarida ijobiy o‘zgarishlar keltirdi. Misol uchun, India’s SELCO loyihasi, energiya resurslariga cheklangan kirish imkoniga ega bo‘lgan qishloq joylarida quyosh energiyasini tarqatishda muvaffaqiyatli ishlaydi. SELCO ijtimoiy tadbirkorlik modeliga asoslanib, energiya ta‘minotini kambag‘allar va chekka hududlarda yashovchi aholi uchun arzon va samarali qiladi. Bu loyiha o‘zining ijtimoiy maqsadlariga erishish uchun bozorni optimallashtirishga muvaffaq bo‘ldi.

Xotin-qizlar ijtimoiy tadbirkorlikda katta rol o‘ynaydi, chunki ko‘plab ijtimoiy tadbirkorlik loyihalari aynan xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlashga qaratilgan. Misol uchun, Barefoot College loyihasi hindistonning qishloqlarida xotin-qizlarga quyosh panellari ishlab chiqarishni o‘rgatadi va shu orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlaydi. Bu loyiha, shuningdek, qishloqlarda yashovchi xotin-qizlarni o‘zlarining energetik ehtiyojlarini hal qilishda ishtirok etishga undaydi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar ham ijtimoiy tadbirkorlik jarayonida faol ishtirok etishlari mumkin. Misol uchun, Handicap International tashkiloti nogironlarni ish bilan ta‘minlash, ular uchun maxsus ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni tashkil qiladi. Bu kabi loyihalar, nogironlarga imkoniyatlar yaratish, ularni jamiyatning to‘liq a‘zolariga aylantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlik modeli nogironlarga faqat jamiyatga foyda keltiradigan ish o‘rinlari yaratish bilan cheklanmaydi, balki ularni iqtisodiy ravnaq va rivojlanish jarayonlariga ham jalb qiladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik sohasining rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud. O‘zbekistonning iqtisodiy siyosati va ijtimoiy dasturlari, ayniqsa, kambag‘allikni kamaytirish, aholi bandligini ta‘minlash va jamiyatda tenglikni yaratish borasida ijtimoiy tadbirkorlikka asoslangan yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutmoqda. O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, “Yoshlar o‘rtasida ish o‘rinlarini yaratish” dasturi va “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash” loyihalari orqali ijtimoiy tadbirkorlikka turtki berilmoqda. Davlatning ijtimoiy tadbirkorlikka bo‘lgan qo‘llab-quvvatlashi biznesni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda jamiyatning ijtimoiy faol qatlami, ayniqsa, yoshlar va xotin-

qizlar katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, nogironlar va aholi turli guruhlar uchun yaratish mumkin bo‘lgan ish o‘rinlari va o‘quv dasturlari, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Ijtimoiy tadbirkorlik loyihalari, o‘z navbatida, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Va nihoyat, umumlashtirib aytganda — ijtimoiy tadbirkorlik bu zamonaviy dunyoning muhim yechimlaridan biri. Innovatsiyalar, yangi fikrlar, texnologiyalar — bularsiz oldinga siljib bo‘lmaydi. Ijtimoiy tadbirkorlik esa ana shu vositalar orqali nafaqat muammolarni yengadi, balki jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar yasaydi.

Bu yo‘l — yurak, bilim va jasorat yo‘li. Uni tanlaganlar faqat o‘z manfaatini emas, balki boshqalar baxtini ham o‘ylaydigan insonlardir. Davlatlar esa bu yo‘lda ularni qo‘llab-quvvatlashi, qonun, mablag‘ va bilim bilan yordam berishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yunus, M. (2007). Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism. PublicAffairs
2. Grameen Bank website: www.grameen.com
3. "SELCO India". SELCO India Official Website. www.selcoindia.com
4. "Barefoot College". Barefoot College Official Website. www.barefootcollege.org
5. Handicap International website: www.handicap-international.org
6. Schwab Foundation for Social Entrepreneurship. (2022). "Unlocking the Power of Social Entrepreneurs for the Sustainable Development Goals." World Economic Forum.*